

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 2, 2024

www.buxdu.uz



Kodirjonova Nafisahon,
Osiyo xalqaro universiteti magistri
kodirjonovanafisakhon@gmail.com

Elov Ziyodullo Sattorovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)
elovziyo2021@gmail.com

NOTO'LIQ OILALARDA O'SMIRLAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolamda hozirgi kunda anchagina dolzarb muammoga aylangan oilaviy ajrimlarning va shu oqibatida to'liqsiz holatga kelib qolayotgan oilada ulg'ayotgan o'smirlardagi o'sish muammolar masalasi, to'liq bo'lmagan oilalardagi o'smirlarga yordam ko'rsatish, ularning o'sishdagi qiyinchiliklarini asta-sekin yengillashtirish jarayonlari hadiqa fikrlar bildirilgan bo'lib, bunday oilalarda o'sib shakllanayotgan o'smir shaxsining keyinchalik jamiyatdan ajralgan holatda o'z fikrini ifoda eta olmaslik, zo'ravonlik natijasida ortirilgan jaroxati, vaqt mobaynida salbiy xarakterga ega bo'lishi, tuyg'ulari nafratga aylanishi va oila qurushda suskashlik qilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: oila, o'smirlik davri, to'liq bo'lmagan oilada o'sgan o'smir, psixologik muammolar, tadqiqot usullari, o'smirlarni psixik o'zgarishi va sabablari, buzilish, axloq, zo'ravonlik, tajovuz, nafrat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПОДРОСТКОВ В НЕПОЛНОЦЕННЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация. В этой статье я рассмотрю вопрос семейных разводов, ставший сегодня весьма актуальной проблемой, а также проблемы роста подростков, растущих в неполных семьях, оказание поддержки подросткам в неполных семьях, процессы их роста. выражены постепенное облегчение жизненных трудностей, а неспособность подростка, растущего в таких семьях, выразить свое мнение в состоянии оторванности от общества, травма, причиненная насилием, с течением времени носит негативный характер. что его чувства перерастут в ненависть и что семья не захочет платить.

Ключевые слова: семья, подростковый возраст, подросток, растущий в неполной семье, психологические проблемы, методы исследования, психологические изменения подростков и их причины, расстройство, нравственность, насилие, агрессия, ненависть.

PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF ADOLESCENT DEVELOPMENT IN FAULTY FAMILIES

Abstract. In this article, I will discuss the issue of family divorces, which has become a very urgent problem today, and the growth problems of adolescents growing up in single-parent families, providing support to adolescents in single-parent families, their growth. The processes of gradual relief of the difficulties in life are expressed, and the inability of the adolescent growing up in such families to express his opinion in a state of separation from society, the injury caused by violence, has a negative character over time. It is thought that his feelings will turn into hatred and that the family will be reluctant to pay.

Key words: family, adolescence, a teenager growing up in an incomplete family, psychological problems, research methods, psychological changes in adolescents and their causes, disorder, morality, violence, aggression, hatred.

Kirish. O'smirlik davri insonni bolalikdan – yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining eng xarakterli davrlaridan biridir. Bu davr psixologik pedagogik adabiyotlarda «O'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi iboralar bilan ataladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oraligida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

XXI asrning hozirga davriga kelib, akseleratsiya rufayli JSST o'smirlarni 10 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar deb belgilaydi. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, o'smirlik davri ayrim bolalarda (aksariyat hollarda qiz bolalarda) 9-10 yoshlardan boshlanib, yana boshqalarida 16-17


yoshlargacha davom etishi mumkin. O‘smirlik davrining boshlanishi qiz bolalarda o‘gil bolalarga nisbatan 1-2 yil oldin ro‘y beradi.

O‘smirlik davri o‘ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bolalikdan kamolotga o‘tish davri hisoblanadi. Bolalikdan kamolot o‘tish o‘smirlik davrida sodir bo‘ladi, Bu davr bola uchun juda katta axamiyatli davr xisoblanadi va aynan Psixolog L.S.Vigotskiy o‘smir yoshi psixologiyasini “psixik rivojlanishdagi inqiroz” deb nomlagan. Bu vaqtda o‘smir uchun ota ona mexri birdek zarur xisoblanadi. Hech kimga sir emaski xozirgi davrda ajralishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak to‘liq bo‘lmagan oilalar ko‘pincha bir ota-onaning vafoti natijasida shakllangan. XVII, XVIII va XIV-asrlarda ota-onalar o‘limining yuqori ko‘rsatkichlari asosan kasalliklar, urushlar va ona tug‘ilishidan kelib chiqqan asoratlar bilan bog‘liq edi.

Tahlillar va mulohazalar. L.S.Vigotskiyning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg‘iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo‘lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o‘zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo‘lishi natijasida o‘smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta‘lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o‘smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo‘lmaydi. Bu davrda yurak qon-tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuzatiladi. Bu paytda yurak xajmi jihatidan ancha kattalashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi. Ko‘pincha qon aylanishining vaqtincha buzilishida qon bosimining yoshga bog‘liq xolda ko‘tarilishiga, yurak faoliyatining zo‘r berilishiga olib keladi. Natijada o‘smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og‘rig‘i paydo bo‘ladi.

O‘smirlarning yoshi ham jismoniy psixik xususiyatga egadir, organizm I.Pavlov ta‘limotiga ko‘ra, bir butun sitsemadan iborat bo‘lib, bunda barcha to‘qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi. Lekin, bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog‘langan yuqori qismi I.P.Pavlov so‘zi bilan aytganda organizmda sodir bo‘ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po‘tsi asosiy yetakchi rolni o‘ynaydi. O‘smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o‘sa boshlaydi va miya ichki tuzilishining murakkablashishga o‘tadi. Katta yarim sharda nerv hujayralarning etilishi tugallanadi. To‘liqsiz oilada katta bo‘layotgan farzandlar ota onasi doimo farzandlarini nosog‘lom muxitda bo‘lishidan va fe‘l-atvorda nuqsonlar paydo bo‘lishidan doimo xavotirda. Biroq, ota-onalar umumlashtirmasliklari kerak, chunki manaviy yetuk farzandlar ham to‘liq bo‘lmagan oilalarda o‘sishi mumkin.

To‘liq bo‘lmagan oilalarda o‘sgan o‘smirlarning ota yoki onasi o‘z farzandlarining ichki holatidan ko‘proq xabardor bo‘lishlari va ularni o‘zlarini topishlariga imkon berishlari kerak. Bundan tashqari, ularning bolalari ruhiy holatni boshdan kechirayotganini tushungan xolda sog‘lom tarbiya olishlari uchun ikki tarafdan ham mehr va muhabbat berilishi kerak.



1-rasm. To‘liqsiz oiladagi sotsial muammolarni o‘rganish uchun diagnostika test natijalari

Jadvalda ko‘rinib turganidek to‘liqsiz oilalarni kelib chiqish sabablari asosiylari Psixologik sabab bundan tashqari yetishmovchilik va bir birini tushunmaslik xam tashkil qiladi.

To‘liq bo‘lmagan oilalar, o‘smirga qanday ta‘sir qiladi va to‘liq bo‘lmagan oilalarda tarbiyalangan o‘smirlar qanday muammolarga duch kelishi mumkin?

1. O'zining his-tuyg'ularini ifoda eta olmaslik.

Faqatgina ota yoki onasi bo'lgan uydagi ba'zi bolalar unchalik ko'p gapirmaydi. Aslini olganda, ular juda idrokli, yorqin, yaxshi va yomonni ajrata oladilar. Masalan, unga kim, yoki nima foydali, kim gapirayotgani katta ahamiyatga ega. Oddiy qilib aytganda, ular kichikligidanoq o'zlarining ichki fikrlari va his-tuyg'ularini yashirishga urinishgan. Aloqa to'sig'i, yani agar ota yoki ona farzandining qalbi, ichki xissiyoti haqida qayg'urish uchun vaqt yoki imkoniyati bo'lmasa va hech kim undan uning fikrlari va his-tuyg'ulari haqida so'ramasa, u o'zini yolg'iz xis qiladi va natijada ichki his-tuyg'ularini etkazish qobiliyatini yo'qotadi.

2. Siz e'tiborsiz qoldira olmaydigan hayotidagi doimiy mavjudlik.

Agar o'smirlarning ota-onasining ajrashishiga xiyonat yoki uydagi zo'ravonlik kabi asosiy jarohatlar sabab bo'lgan bo'lsa, bolalar katta azob chekishadi. Keyinchalik, kattalar bo'lib, nikoh bilan bog'liq tashvishlar va noto'g'ri qarashlar paydo bo'lishi mumkin va bu mavjudlik bolaning qalbida qoladi.

3. Salbiy xarakterning rivojlanishi.

Bolaning fe'l-atvoriga ko'pincha ular o'sib-ulg'aygan oila kuchli ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga ota-onaning ajralishi ham o'smirda chuqur umidsizlikka olib kelishi mumkin. Unda o'zini past baho, o'ziga qaramlik, asabiylashish, o'jarlik va boshqalar kabi yomon xususiyatlar rivojlanishi mumkin.

4. Rashk.

Har bir yosh sog'lom oilaga ega bo'lishni orzu qiladi to'liq bo'lmagan oila farzandlari, odatda, boshqa xonadonlardagi bolalar kabi moddiy va ma'naviy jihatdan baxtli emas. Ulardagi rashk tuyg'usi tezlik bilan nafratga o'tishi mumkin.

5. Nikohga nisbatan sovuqroq munosabatda bo'lishi.

O'smir ulg'ayganida va oila qurganida, u ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin yoki er-xotin kichik janjallarga duch kelganda u tez taslim bo'lishi va hattoki hayotdan umidini yo'qotishi mumkin. Uning ota-onasi bolaligidan ajrashganligi sababli, u ajralish nikohning umumiy va muqarrar natijasi deb hisoblashi mumkin.

O'tish davri yoki o'smirlik bu – ontogeneza bolaning katta insonga aylanishining uzoq va qiyin bosqichi. Bu davrda inson nafaqat jismonan, balki psixologik jihatdan ham o'sadi. O'smirlar miyasida haqiqiy inqilob sodir bo'ladi, bu quyidagi xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Ular qarashlardan juda xijolat tortadi:

O'smirlar tengdoshlari yoki ota-onalari ularni kuzatayotganini bilsa, tashvishlanadi. Ular hatto biror narsaga diqqat qaratganda ham terlashi mumkin.

Ular atrofidagilar ta'siri ostida foydasiz qarorlar qabul qiladi:

13-16 yoshli o'smir o'zi tavakkal qilishga tayyor bo'lmaydi. Ammo tengdoshlari ichida bo'lsa, bu boshqa masala. Ular boshqalar oldida obro'sini yo'qotishdan ko'ra, o'zlariga zarar yetkazishni afzal ko'radi. Bundan tashqari, bu xatti-harakat keyingi yoshda ham kuzatiladi – aniqrog'i, 21 yoshgacha. 14 yoshni eng xavfli yosh deb atashadi: o'smir tengdoshlari ta'sirida tavakkal qilishga va noto'g'ri qarorlar qabul qilishga har qachongidan ham ko'proq moyil bo'ladi.

Ularning xotirasi yomonlashadi:

Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 12 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar xotirasi susayadi, natijada o'qishida muammolarga duch kelishi mumkin. Ko'pincha bu gormonal o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ularni jazolash bilan qo'rqitib bo'lmaydi:

Neyropsixologlar 12-17 yoshdagilarga yaxshi o'qish uchun eng maqbul rag'bat mukofot ekanligini aniqladi. Ammo o'smirlar 18-32 yoshdagi odamlarga qaraganda jazoga keskin munosabatda bo'ladi.

Ular o'zini qidiradi:

Bu davrda o'smir o'zining "men"ini qidiradi, shuning uchun tashqi ko'rinish bilan tajriba qilish tendensiyasi: sochlarni bo'yash, tatuirovka qilish, noodatiy kiyinish kuchayadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak to'liqsiz oilada tarbiya topayotgan o'smirlar, jamiyatimizning xar bir azosidan uning xususiyatlari va o'zgarishlariga katta e'tibor talab qiladi. Uni jamiyatdan ajratmagan xolatda yakka tartibda ishlab o'z fikrini bayon qilishga, o'ziga past baho bermaslikka va orzu qilishdan to'xtamaslikka undashimiz va "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" asnosida ish olib borishimiz masadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Vygotsky's L. S. Pedological Works: Volume 1. Foundations Of Pedology [Vol. 1, 1st Edition] 9811505276, Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2019

2. Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI
3. Avezov O.R. Ta'lim- tarbiya jarayonida agressiv xulqli bolalar ota- onasi bilan ishlashning o'ziga xos psixologik jihatlar. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari" //Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari// Farg'ona, 2017 y. B. 248-251.
4. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik, "Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
5. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, " Buxoro viloyati bosmaxonasi" nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
6. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. 2022. Science and Education 3 (3), 442-447
7. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. Psixologiya ilmiy jurnal 1 (1, 2022), 27-29
8. Элов З.С. Усмир шахсида деликвент ахлоқ-девиант хулқатворнинг шакли сифатида. Та'лим va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №6) 376-378

№		bet
		стр
		page
1	<i>Miralimov Mirjamol Yuldashevich</i>	3
	Voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	
	Психологические факторы, влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних	
	Psychological factors affecting the formation of criminal motives in minors	
2	<i>Abdug'aniyeva Diyora Abdurashid qizi</i>	8
	Destruktiv emotsional holatdagi shaxslarda shaxs xususiyatlarining o'ziga xosligi	
	Личностные характеристики лиц в деструктивном эмоциональном состоянии	
	Personality characteristics of persons in a destructive emotional state	
3	<i>Abdullayeva Zuxro Ismoilovna</i>	14
	Iqtidorli bolalar qobiliyati va muloqoti	
	Способности и коммуникация даровых детей	
	Ability and communication of gift children	
4	<i>Alimova Nargiza Usmanovna, Jumayeva Guljaxon O'ralovna</i>	18
	Ota-ona va farzand munosabatlari asosida bolalarda farovonlik tuyg'usini shakllantirish	
	Формирование чувства благосостояния у детей на основе родительско-детских отношений	
	Formation of a sense of well-being in children based on parent-children relationships	
5	<i>Ataboyev Navro'zbek Ilhombek o'g'li</i>	22
	Yolg'izlikning shaxs shakllanishiga bo'lgan ta'siri	
	Влияние одиночия на формирование личности	
	Influence of loneliness on personal formation	
6	<i>Baratova Dilafr'o'z Olimjanovna</i>	27
	Noto'liq oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari	
	Социально- психологические проблемы неполной семьи	
	Social and psychological problems of the dysfunctional family	
7	<i>Bekmirov Tolib Rashidovich</i>	34
	Ona va bola o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatning o'ziga xosligi	
	Характеристика социально-психологических отношений между матерью и ребенком	
	Characteristics of social-psychological relationship between mother and child	
8	<i>Djumabayeva Manzura Bagibekovna</i>	38
	O'smirlik davrida suitsidal xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari	
	Особенности суицидального поведения в подростковом возрасте	
	Characteristic features of suicidal behavior in adolescence	
9	<i>Kodirjonova Nafisahon, Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	42
	Noto'liq oilalarda o'smirlar rivojlanishining psixologik muammolari	
	Психологические проблемы развития подростков в неполноценных семьях	
	Psychological problems of adolescent development in faulty families	

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi
201/3-sonli qarori bilan psixologiya
fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy
maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

ISSN 2181-5291

